



GERMANY

CONFERENCE

INTERNATIONAL CONFERENCE ON
SCIENCE, ENGINEERING AND
TECHNOLOGY





INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY:
a collection scientific works of the International scientific conference –
Hamburg, Germany, 2026 Issue 7

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish,

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference « **INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY** ». Which took place in Hamburg 2026.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.



FAVQULODDA VAZIYATLARDAN JABRLANGANLARGA PSIXOLOGIK YORDAM KO'RSATISHDA XALQARO STANDARTLAR VA MILLIY TAJRIBALARNING QIYOSIY TAHLILI

Yuldashev Orunbay Raxmonberdiyevich

t.f.n., professor

(Olmaliq davlat texnika instituti Ekologiya, atrof-muhit muhandisligi va mehnat muhofazasi kafedrasi professori)

Diyorov Og'abek Ixtiyor o'g'li

ilmiy tadqiqotchi

(Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi xodimlarining malakasini oshirish markazi)

Kirish. Dunyo miqyosida tabiiy, texnogen va ijtimoiy xarakterdagi favqulodda vaziyatlarning ko'payishi inson kapitali va ijtimoiy barqarorlikka jiddiy xavf tug'dirmoqda. Favqulodda vaziyatlar nafaqat moddiy talofatlar, balki inson ruhiyatiga tiklab bo'lmaz darajada kuchli shikast yetkazadi. Jabrlanuvchilarda o'tkir stress reaksiyalari, xavotirlanish, depressiya va posttravmatik stress buzilishlari patologik darajada rivojlanadi. Bunday inqirozli holatlarda aholiga psixologik yordam ko'rsatish tizimini to'g'ri tashkil etish davlatning ijtimoiy siyosatida muhim o'rin tutadi.

O'zbekistonda ham oxirgi yillarda favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda aholining ijtimoiy-psixologik himoyasini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur jarayonda xalqaro tajribalarni o'rganish va ularni mahalliy sharoitga tatbiq etish ilmiy jihatdan nihoyatda dolzarbdir.

Ilmiy-nazariy asoslar va xalqaro standartlar. Xalqaro amaliyotda inqirozli vaziyatlarda ruhiy salomatlik va psixosotsial qo'llab-quvvatlash bo'yicha agentliklararo doimiy qo'mita (IASC - Inter-Agency Standing Committee) ko'rsatmalari yetakchi o'rin egallaydi. IASC piramidasi yordam ko'rsatishning 4 ta bosqichini belgilaydi [1]:

Birinchi bosqich, bazaviy xizmatlar va xavfsizlik (aholini oziq-ovqat, boshpana bilan ta'minlash jarayonidagi psixologik qulaylik).

Ikkinchi bosqich, oila va jamiyat darajasidagi qo'llab-quvvatlash (ijtimoiy tarmoqlarni tiklash).

Uchinchi bosqich, maqsadli (ixtisoslashgan bo'lmagan) yordam (ijtimoiy xodimlar va tibbiyot xodimlari tomonidan ko'rsatiladigan birlamchi ruhiy yordam).

To'rtinchi bosqich, ixtisoslashtirilgan xizmatlar (klinik psixologlar va psixiatrlar yordami).



Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan “Psixologik birlamchi yordam” qo‘llanmasi esa favqulodda vaziyat yuz bergan dastlabki soatlarda jabrlanuvchiga qanday munosabatda bo‘lishning universal prinsiplarini (“Kuzatish”, “Tinglash”, “Bog‘lash”) belgilab beradi. Xalqaro miqyosda B. Van Der Kolk va R. Janoff-Bulman kabi olimlarning tadqiqotlari inqirozli vaziyatlarda tizimli metodologiyaning samaradorligini isbotlagan [2].

Milliy tajribaning o‘ziga xos xususiyatlari. O‘zbekiston Respublikasida favqulodda vaziyatlarda psixologik yordam ko‘rsatish asosan Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi hamda ijtimoiy himoya institutlari tomonidan amalga oshiriladi.

Mahalliy olimlardan L.Ya. Olimov, Z.M. Maxmudova va O.R. Avezovlarning ilmiy ishlarida milliy mentalitet, oilaviy qadriyatlar va mahalla institutining inqirozli davrlardagi integratsion roli chuqur o‘rganilgan. Milliy tajribaning o‘ziga xosligi shundaki, jabrlangan shaxs faqat individual tarzda emas, balki oila va mahalla muhiti orqali ham ijtimoiy-psixologik reabilitatsiya qilinadi. Biroq, tarqoqlik va FV paytida idoralararo tezkor muvofiqlashtirish tizimining mukammal emasligi milliy amaliyotning zaif tomonlaridan biri hisoblanadi [3].

Xalqaro va milliy tizimlarning qiyosiy tahlili (Jadval shaklidagi tahliliy vizualizatsiya). Quydagi tizimli jadvalda xalqaro standartlar va milliy tajribalarning konseptual farqlari va o‘xshashliklari qiyoslangan: 1-jadval

Xalqaro va milliy tizimlarning qiyosiy tahlili

Mezonlar	Xalqaro standartlar (IASC/JST)	Milliy tajriba (O‘zbekiston)
Tizimli yondashuv	Ko‘p tarmoqli, 4 bosqichli piramida asosida.	Asosan idoraviy va tibbiy-markazlashgan yondashuv.
Birlamchi metodika	Psixologik birlamchi yordam (PFA) protokollari.	Klinik-tibbiy aralashuv va an‘anaviy suhbat metodlari.
Ijtimoiy resurslar	Jamiyat faollari va ko‘ngillilar keng jalb etiladi.	Mahalla, oila va davlat ijtimoiy xodimlari tayanchi.
Malaka darajasi	Barcha qutqaruvchilar PFA standartini mukammal biladi.	Maxsus psixologlar guruhlar yuqori malakaga ega, ammo quyi bo‘g‘inda bilim kam.

Monitoring	Uzoq muddatli gospitalizatsiyadan keyingi tizimli skrining.	Qisqa muddatli inqirozli tezkor yordam ustunlik qiladi.
------------	---	---



Favqulodda vaziyatlarda yuzaga keladigan stress belgilari

1 Jismoniy belgilar

Bosh og'rig'i, uyqusizlik va charchoq kabi belgilar paydo bo'lishi mumkin. Ishtaha o'zgarishi va mushaklardagi taranglik ham kuzatilishi mumkin.

2 Hissiy belgilar

Xavotir, qo'rquv va tushkunlik kabi hissiyotlar kuchayishi mumkin. Ba'zilar jizzaki yoki tajovuzkor bo'lib qolishlari mumkin.

3 Xulq-atvor o'zgarishlari

Odatiy faoliyatdan qochish yoki o'zini chetga olish kuzatilishi mumkin. Uyqu va ovqatlanish tartibi buzilishi mumkin.

1-rasm. Favqulodda vaziyatlarda yuzaga keladigan stress belgilari [4, 5]

Taklif va amaliy tavsiyalar. O'tkazilgan qiyosiy tahlil natijalarini hisobga olgan holda, quyidagi amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

1. IASC va JST standartlari asosida milliy modullarni yaratish: Xalqaro "Psixologik birlamchi yordam" protokollarini milliy mentalitet xususiyatlarini inobatga olgan holda Ta'lim tizimimizga integratsiya qilish.

2. Idoralararo tezkor mobil psixologik guruhlar tarmog'ini shakllantirish: FVV va Sog'liqni saqlash vazirligi qoshidagi xizmatlarning o'zaro hamkorlik reglamentini ishlab chiqish va favqulodda vaziyat hududida birgalikda ishlash ko'nikmalarini shakllantirish.

3. Raqamli monitoring va "Inqirozli psixologik xizmat" platformasini joriy etish: favqulodda vaziyatlardan jabrlangan aholi holatini uzoq muddat davomida masofaviy skrining qilish va ularga individual rehabilitatsiya rejasini tayinlash uchun elektron baza yaratish.

4. "Mahalla psixologi" ko'ngillilar maktabini tashkil etish: Jamiyat darajasida psixologik chidamlilikni oshirish uchun mahalla faollarini birlamchi ruhiy qo'llab-quvvatlash usullariga o'qitish tizimini yo'lga qo'yish.



5. Favqulodda vaziyatlar hududida ishlagan qutqaruvchilar, ijtimoiy soha xodimlari va psixologlarning o'zlarida yuzaga keladigan emotsional holatlarni oldini olish uchun majburiy psixologik reabilitatsiya kurslarini joriy etish.

Xalqaro standartlar va milliy tajribalarning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda favqulodda vaziyatlarda psixologik yordam ko'rsatishning kuchli institutsional asoslari mavjud. Biroq, yordam samaradorligini yanada oshirish uchun tizimni xalqaro IASC piramidasi tamoyillari asosida integraytsiya qilish, quyi bo'g'in xodimlarining inqirozli psixologiya bo'yicha malakasini tizimli ravishda oshirish va uzoq muddatli monitoring mexanizmlarini joriy etish lozim. Bu chora-tadbirlar jabrlanuvchilar ruhiyatidagi psixonevrotik asoratlarni keskin kamaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Olimov L.Ya. Ekstremal vaziyatlarda psixologik xizmat tashkil etishning nazariy va amaliy muammolari. Monografiya. – Buxoro: BuxDU nashriyoti, 2021.
2. Maxmudova Z.M. Inqirozli davrlarda shaxs psixologik reabilitatsiyasi xususiyatlari. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2019.
3. Avezov O.R. Favqulodda vaziyatlar psixologiyasi va ijtimoiy adaptatsiya masalalari. – Urganch: UrDU, 2022.
4. Inter-Agency Standing Committee (IASC) Guidelines on Mental Health and Psychosocial Support in Emergency Settings. – Geneva: IASC, 2007.
5. World Health Organization. Psychological First Aid: Guide for Field Workers. – Geneva: WHO, 2011.